

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1/S-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Мадреймов Фархат Махсетбаевич</i> СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1920-1924 ГОДАХ	12-18
<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> АНТРОПОЛОГИЯ ИМПЕРСКОЙ ВЛАСТИ: ХАКЕНТСКИЕ ЗЕМЛИ И АДВОКАТ С. ЛАПИН	19-23
<i>Чориев Шохрух Холтура угли</i> ИСТОРИОГРАФИЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА В 40-90-Е ГОДЫ XX ВЕКА	24-35
<i>Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING 1917-1943-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR DA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI	36-43
<i>Esonova Nilufar</i> SANOAT SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK MUNOSABATLAR TARIXINING O'RGANILISHI: TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2018-YILLAR)	44-47
<i>Qarshiyev Ahmad, Jumayev Abdimo'min, Bebitov Maqsud</i> DENOV BEKLIGIDA MAVJUD JOY NOMLARIGA OID MULOHAZALAR	48-55
<i>Qurbonov Abbos</i> MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYODA YENGIL SANOAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	56-59
<i>Abduraimova Sabohat Ergash qizi</i> BUXORO AMRLIGI DAVRIDA CHIROQCHI BEKLIGI AHOLISINING TURMUSH TARZI	60-65

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Karjavova Xurshida Abdumalikovna</i> MAHALLA INSTITUTINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	66-73
<i>Pardayev Erkin Egamberdi o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	74-82
<i>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</i> O'ZBEKISTON POCHTA BOZORIDA XUSUSIY POCHTA KORXONALARINING TUTGAN O'RNI (BTS, DMS, EMU POCHTALARI MISOLIDA)	83-86
<i>Чинорова Шаҳодат Мансур кизи, Нормуродов Хусан Эшмаҳматович</i> ЗНАЧЕНИЕ ТАРГЕТИРОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	87-93
<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> GREEN BONDS: FINANCING RESOURCE CONSERVATION FOR A SUSTAINABLE FUTURE IN FARMING IN UZBEKISTAN	94-108

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Rashidova Dilfuza Ganievna

XIX ASR O'ZBEK SHOIRALARINING IJODIDA GUMANISTIK G'OYALAR
VA IJTIMOYIY-FALSAFIY QARASHLAR 109-113

Ochilova Nigora Ruzimuratovna

GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY-IJTIMOYIY OMILLARI 114-118

Samadov Jonmurod

JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING
ILMIY–METODOLOGIK TAHLILI 119-123

Kdirbaev Baxadir Berdaxovich

AXBOROT JAMIYATI VA MEDIA-MADANIYATNING NAZARIY-FALSAFIY
TUSHUNCHASI 124-131

Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI 132-136

Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna

ILMIY TIL VA FALSAFIY TERMINOLOGIYA: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI 137-141

Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich

IJTIMOYIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELEKTNING INSON
SALOHIYATIGA TA'SIRI 142-148

Султанов Бахтиёр Бахтиёрович

ОБРАЗ ФИЗИЧЕСКОЙ РАЗВИТОЙ, ГЕРОИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ
В ЭПОХУ АНТИЧНОСТИ 149-153

Bozorov Suxrob Komilovich

MA'NAVIY TRANSFORMATSIYANING ISTIQBOLLARI: INNOVATION
G'OYA VA LOYIHALAR 154-157

Kimsanbayeva Shaxnoza Bakridinovna

MILLIY O'ZLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI
O'ZARO TA'SIRLAR 158-163

Muxamedjanova Lalixon

GLOBALASHUV VA MADANIYATLARARO ARALASHUV 164-172

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID
LESIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI 173-180

Mahmudova Umida Ural qizi

INTERNET DISKURSIDA FOYDALANILADIGAN EMOJILARNING LISONIY
VA MADANIY JIHATLARI 181-189

Madalov Navruz Ergashevich

IMPORTANT SUBJECTS OF COMPARATIVE AND CONTRASTIVE PHILOLOGICAL
STUDIES AND TRANSLATION DIFFICULTIES OF STRUCTURAL–SEMANTIC
MODELS OF PROVERBS 190-194

Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich

XOTIRANOMALARDA ZAMON VA MAKON MASALASI 195-198

<i>Ochilova Habiba Akramovna</i> ISSUES IN THE CLASSIFICATION OF QUESTION SENTENCE TYPES IN LINGUISTICS ...	199-207
<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> FILOLOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TIBBIY TARJIMA VA TALQINGA TA'SIRI	208-213
<i>Karabaeva Barno Bobir qizi</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF METAPHORICAL EXPRESSIONS REFLECTING PERCEPTION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	214-219
<i>Aхунбабаева Наргиза Хамиджановна</i> ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ИСТОРИЧЕСКИХ И АРХАИЧНЫХ СЛОВ В ДОКУМЕНТАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ «ВЛАСТИТЕЛЬ СЕМИ СОЗВЕЗДИЙ»	220-226
<i>Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SON-GIBRID MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	227-236
<i>Mansurova Shohista Isroilovna</i> OT OBRAZI TUSHUNCHASI (ZAMONAVIY O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI MISOLIDA)	237-241
<i>Davranov Akmal Akramjonovich</i> IJTIMOIY TENGLIK TUSHUNCHASI (INGLIZ UTOPIYALARI VA O'ZBEK DOSTONLARI MISOLIDA)	242-246
<i>Yuldasheva Aziza Yuldashevna</i> TARJIMASHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING O'RNI	247-252
<i>Mirvaliyeva Malika Zoid qizi</i> SEMANTIKANING TARJIMADAGI AHAMIYATI	253-257
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> JADID ADABIYOTI VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI	258-262
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE MOOD OF LONGING FOR FREEDOM IN THE AGE OF BYRON	263-266
<i>Narzikulova Rayhona Ahmadovna</i> THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF IRONY	267-271
<i>Najmiddinov Muhammadjon</i> O'ZBEK TILIDA KO'P MA'NOLILIK, SINONIMIYA, OMONIMIYA VA ULARNING ELEKTRON TEZAUROSDA AKS ETISHI	272-278
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> LEKSIK-SEMANTIK DEVIATSIYA ILGARI SURISH VOSITASI SIFATIDA	279-284
<i>Tashpulatova Mukambar Axmetovna</i> KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA SUN'IY INTELEKTNING TILGA TA'SIRI	285-289
<i>Normamatov Farrux, Toshpo'latova Xusniya</i> GLOBAL KESIMDA INGLIZ MADANIYATINING LINGVOKULTUROGIK JIHATLARI	290-293
<i>Shonazarova Gulnoza, Madiyeva Madina</i> THE ROLE OF INTERNET RESOURCE IN IMPROVING TEACHING FOREIGN LANGUAGE: METHODOLOGICAL ANALYSIS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS	294-297

<i>Jo'rayeva Lola Tolibdjonovna</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA NEOLOGIZMLARNING BUGUNGI KUNDAGI QO'LLANILISHI	298-302
<i>Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna</i> TA'M VA TIL O'RTASIDAGI MUVOZANAT: TAOM DISKURSINING TARJIMA QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI	303-307
<i>Axmedov Shaxzod, Nazarov Vafokul</i> NEOLOGIZMLAR TADQIQI TARIXIGA DOIR	308-312
<i>Mustafayeva Sojida Ulashevna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA MERONIMIK MUNOSABATLI SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI	313-321
<i>Buriyeva Muxayyo Zokir qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF MEAT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	322-326
<i>Berdikulova Shaxnoza Ruziqulovna</i> YORDAMCHI SO'ZLARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA TURLARI VA YASALISHI: BOG'LOVCHILAR	327-330
<i>Shokirova Gulbahor Alimovna</i> NEMIS TILINI O'QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR	331-334
<i>Najmidinova Nafisa Ulja qizi</i> O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHILARGA ITALYAN TILINI O'RGATISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	335-339
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Утемурастов Махмуд Ажимурастович</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРАВА (ОТ ТРАДИЦИОННОГО К ЦИФРОВОМУ ПРАВУ)	340-344
<i>Masadikov Sherzodbek</i> ENFORCEMENT OF ARBITRATION AGREEMENT UNDER UZBEK LAW	345-351
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> ONLINE GENDER-BASED VIOLENCE IN UZBEKISTAN: GAPS IN LEGISLATION AND THE PATH FORWARD	352-363
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li</i> KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL	364-372
<i>Ходжаева Ширин</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ВСЕМИРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА	373-378
<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ЭЛИТА ИНДУСТРИИ ВЕНЧУРНОГО КАПИТАЛА	379-384
<i>Mirzaraximov Baxtiyor, Shokirov Bobur</i> ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA KIBERXAVFSIZLIK STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHI VA SAMARADORLIGI: MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH CHORALARINING RIVOJLANISHI VA NATIJADORLIGI TAHLILI	385-392

<i>Суннатиллаева Сарвиноз Иззатулло кизи</i> ДИСКРЕЦИОННЫЕ ПОЛНОМОЧИЯ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И СОВЕТЕ ЕВРОПЫ: ПРЕДЕЛЫ, КОНТРОЛЬ И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА	393-400
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> CHET ELLIK INVESTORLARNING HUQUQIY MAQOMI HAMDA ULARNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA IMTIYOZ VA PREFERENSIYALAR BERISH	401-406
<i>Raximbayev O'tkir Fayzullayevich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALASIGA NAZAR	407-414
<i>Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li</i> HOZIRGI ZAMON ISLOM MOLIYA HUQUQI VA AN'ANAVIY HUQUQIY TIZIMLAR O'RTASIDAGI QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	415-423
<i>Zokirov Sardorjon Karimjon ugli</i> PROCEDURAL FEATURES OF PARTICIPATION DEFENSE COUNSEL AT THE PRELIMINARY INVESTIGATION	424-430
<i>Axmedova Guliruxsor Ravshanovna</i> BOLANI OLIB BERISH VA UCHRASHTIRISH BILAN BOG'LIQ ISHLARNI KO'RIB CHIQISH BO'YICHA SUD VA HUQUQIY AMALIYOTNING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI	431-436
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH YUZASIDAN ISH YURITISH MAZMUNI	437-441
<i>Hakimov Sunnat Furqat o'g'li</i> SPORT JAMOAT BIRLASHMALARINING HUQUQIY TAHLILI	442-445
<i>Файзиев Фарход Фуркат угли</i> ЗНАЧИМОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В СОВРЕМЕННЫХ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ УСЛОВИЯХ	446-452
<i>Файзиева Гулрух Мухаммади кизи</i> МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЛИЩА	453-459
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich</i> TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA «MODDALARNING NURLANISH SPEKTRINI O'RGANISH» MAVZUSINI IT TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAMOYISH ETISH MASALALARI	460-466
<i>Hamdamova Nozima Muqimovna</i> BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	467-475
<i>Zulfixarov Ilxom Maxmudovich, Zulfikorova Munajat Mirzaxmatovna</i> IQTISODIY-IJTIMOYIY GEOGRAFIK BILIMLAR BERISHDA MATEMATIK METODLARDAN FOYDALANISH	476-481
<i>Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna</i> ESDALIKLAR — SADRIDDIN AYNIYNING UMR VA XOTIRA KITABI	482-488

<i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna</i> KLAUSTER TIZIMIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	489-494
<i>Inoyatov Odiljon Sabitovich</i> TEKISLIK LARNING O'ZARO PARALLELLIGI	495-500
<i>Жумамуратова Аубахар Нурмуханбетовна</i> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ	501-508

Received: 15 February 2025
Accepted: 20 February 2025
Published: 25 February 2025

Article / Original Paper

THE BALANCE BETWEEN TASTE AND LANGUAGE: CHALLENGES OF TRANSLATING GASTRONOMIC DISCOURSE

Saitkhanova Aziza

Uzbek State World Languages University Translation Faculty
“English Applied Translation” department senior teacher

Abstract. This article discusses the linguistic aspects of translating dish names into English and Uzbek languages. The article will explore translation methods, their strengths and weaknesses, as well as the factors that affect the quality of the translation. When translating dish names, the type of translation used and the function of each method in the translation process will be analyzed.

As you know, tourism, including gastronomic tourism, is growing rapidly every day. One of the biggest challenges in this field is translating dish names and ingredient names, as well as culinary lexemes. These terms are often part of a larger unit, making the translation process more difficult. Analyzing how dish names are translated into English and providing recommendations for their usage is an important issue today.

Keywords: translation, nominees of dishes, linguistics, translation transformations, transcription, transliteration, descriptive translation, adaptation, concretization, generalization.

TA'M VA TIL O'RTASIDAGI MUVOZANAT: TAOM DISKURSINING TARJIMA QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI

Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti
“Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrası katta o'qituvchisi.

E-mail: azizasaidhanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida taom nomlarini tarjima qilishning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada tarjima usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, tarjima sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Taom nominantlarini tarjima qilishda tarjima turlari, tarjima jarayonida qo'llaniladigan tarjima usullarining vazifasi haqida tahlil qilinadi. Ma'lumki, bugungi kunda turizm shu jumladan gastronomik turizm kundan-kunga jadal rivojlanmoqda. Bu sohani rivojlanishida eng katta qiyinchilik — bu taomlarning sarlavhalari yoki nomlari, ingrediylar nomlari hamda “pazandachilik” leksemalarining tarjimasidir. Ko'pincha bu leksemalar bir qator ekvivalent bo'lmagan birliklarga tegishli bo'lib, tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Taom nomlarning ingliz tilida berilishini tahlil qilish, ularni berilishiga oid tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Kalit so'zlar: tarjima, taom nominantlari, lingvistika, tarjima transformatsiyalari, transkripsiya, transliteratsiya, tasviriy tarjima, adaptatsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N47>

Kirish. So'nggi yillarda turizmning barcha jabhalari shu jumladan gastronomik turizm kundan-kunga jadal rivojlanmoqda. Turistlarni nafaqat bizning go'zal inshootlarimiz, tarixiy obidalarimiz balki og'izda qoluvchi unutilmas ta'mlar mujassam bo'lgan taomlarimiz yordamida ham jalb qilish mumkin. Gastronomik turizm xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ko'p jihatdan oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini adekvat tarjima qilishga, shuningdek,

restoranlar va umumiy ovqatlanish joylarida ingliz tilidagi matnlarga qo'yiladigan til talablariga bog'liq.

Taom diskursining tarjima qilish — bu tilshunoslikning muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Bu tarjima nafaqat taomning nomini yetkazish, balki uning madaniy va gastronomik xususiyatlarini ham aks ettirishni talab qiladi. Ingliz va o'zbek tillari turli madaniyatlarga mansub bo'lganligi sababli, taom nomlarini tarjima qilishda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida taom nomlarini tarjima qilishning lingvistik xususiyatlarini o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya. Taom nomlarini tarjima qilishga oid ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Ushbu ishlarda tarjima usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, tarjima sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Glyuttonik diskurs tushunchasi o'rganilgan. Bu diskurs taom, ovqatlanish madaniyati va unga oid leksikani o'z ichiga oladi.

Garchi taom masalasi doimo dolzarb bo'lgan bo'lsada glyuttonik diskurs nisbatan yaqinda o'rganila boshlandi. Taomlanish sohasiga madaniy va lingvistik hodisa sifatida etnografik va lingvistik fanlarda qiziqish XIX asrda paydo bo'lgan. M. V. Kapkanning ta'kidlashicha, o'sha paytda gastronomik madaniyat bilan bog'liq tadqiqotlar yetarlicha o'rganilmagan edi. P. Giro va boshqa xorijiy tadqiqotchilar qisman turli xalqlarning taomlanish odatlari haqida so'z yuritishgan [1]. Gastronomik madaniyatni tahlil qilishga birinchi urinishlar "yilnomalar" yoki "yangi tarix fanlari" maktabi tomonidan qilingan. Gastronomik madaniyatga, shuningdek ovqatlanish sohasini o'rganishga alohida e'tibor 1960-1970-yillarda namoyon bo'ldi va K. Levi-Strauss, R. Barth va M. Duglas kabi tadqiqotchilarning asarlarida rivojlandi.

Glyuttonik diskurs atamasi fanga rus tilshunosi A. V. Olyanich tomonidan 2003-yil "Diskursning prezentasion nazariyasi" nomli tadqiqotida kiritilgan, olimning ta'kidlashicha, bu atama institutsional xarakter va "oziq-ovqat" tushunchasi bilan bevosita bog'liq. A. V. Olyanichning monografik tadqiqotida glyuttonik diskurs jihatlari va uning kognitiv tizimi haqida aytib o'tgan. U shuningdek, glyuttonik diskursning lingvistik belgilari kombinatsiyani tashkil qilishi, bu esa o'z navbatida freymlarga bo'linib, ular inson ongida menyular, reseptlar, taomlanishda axloq qoidalari va marosimlar shaklida saqlanadi deb ta'kidlagan. Uning fikricha: "Taom nafaqat ovqatlanish manbai, balki madaniy o'ziga xoslikning muhim elementidir. Oziq-ovqat va u bilan bog'liq nutq turli ma'nolarni anglatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladi" [2].

P. P. Burkova o'z ishlarida A. V. Olyanich tomonidan berilgan ta'rifni to'ldiradi: "gastronomik diskurs — bu ma'lum professional yo'naltirilgan belgilarni: terminologiya, barqaror burilishlar, xarakterli morfosintaktik tuzilmalarni ishlatadigan maxsus aloqa turidir. Ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda, ushbu turdagi nutqni quyidagicha aniqlash mumkin "muloqot + resept matni + kontekst". Gastronomik diskurs ommaviy axborot nutqining maxsus turi sifatida ishtirokchilar, xronotop, maqsadlar, strategiyalar, qadriyatlarning mavjudligini nazarda tutadi" [3].

K. M. Fedorova va E. S. Rufova o'rganilayotgan diskurs turini glyuttonik deb atashadi va uni "og'zaki va ijtimoiy nutqning maxsus turi, uning maqsadi ma'lum bir aloqa turiga, ya'ni glyutonniklikka erishishdir" deb ta'riflaydilar [4].

Shu borada A. Yu. Zemskova va L. R. Ermakova, glyuttonik diskursni "murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, bu taom tanlovlari sohasidagi inson tanasining fiziologik ehtiyojlarini lingvistik aks ettirish bilan bog'liq" ekanligini ta'kidlaganlar [5].

O'zbek tilshunosligida bu borada G.K. Odilovanning ishlari e'tiborga loyiqdir. Ular taom nomlarining lingvistik xususiyatlari tahlil qilib, ularning etimologiyasi, semantikasi va madaniy ma'nolarini o'rganganlar. Taom haqidagi matnlarning lingvistik tahlilini amalga oshirganlar: retseptlar, restoran menyulari, restoran nomlarini tahlil qilganlar[6].

Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik metod, tarjima tahlili metodi va statistik metod qo'llanilgan. Tadqiqot materiallari sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi restoran menyulari, oshpazlik kitoblari va internet saytlaridan olingan taom nomlari xizmat qildi.

Natijalar. Stovianova fikriga ko'ra, menyularni tarjima qilishda: transliteratsiya (transliteration), o'zlashtirma (calque) tarjimasi va tavsiflovchi (descriptive) tarjima usullari keng qo'llaniladi.

Taom retsepti tarjimasida sarlavha, ya'ni taom nominantining tarjimasi muhim o'rin tutadi. Aslida, ko'pgina tilshunoslar taom nominantlarini milliy realiyalar qatoriga kiritadilar.

Badiiy va sohaviy tarjima 6 ta tarjima usullariga bo'linadi va ular quyidagilar:

1. *Adekvat (Adequate)*
2. *Ekvivalent (Equivalent;)*
3. *Erkin (Free)*
4. *So'zma-so'z (Word-for-word)*
5. *Tasviriy (Descriptive)*
6. *Mashina tarjimasi (Machine translation)*

Adekvat tarjima uslubi - g'oya va syujet jihatidan asl nusxaga imkon qadar yaqin bo'lgan tarjimadir. Adekvatlik nisbiy tushunchadir va tarjimalarda ko'pincha to'liq adekvatlik emas, balki adekvatlik mezonlari mavjud.

Ekvivalent tarjima — asarning umumiy ma'nosini uslub va gap tarkibidagi o'zgarishlar orqali yetkazishdir.

Erkin tarjima — matnning asl uslubi va hajmidagi o'zgarishlar bilan ijodiy tarjima qilinishiga nisbatan erkin tarjima deyiladi.

Mashina tarjimasi asosan tarjima dasturlari va elektron lug'atlar yordamida amalga oshiriladigan tarjimadir.

Biroq, taomnomalar yaratishda taom nominantlarini shunchaki, transliteratsiya qilishning o'zi yetarli emas. G. Odilova taom nomlari tarjimasi jarayonida 7 ta transformatsiya usullaridan foydalanib menyu yoki taomnomalarni to'g'ri tarjima qilish mumkin deb ta'kidlab o'tgan[7].

1. *Transkripsiya va transliteratsiya*
2. *Qisman transkripsiya*
3. *Izohli transkripsiya*
4. *Adaptatsiya*
5. *Perefraza*
6. *Generalizatsiya*
7. *Konkretizatsiya*

Transkripsiya va transliteratsiya: Mazkur usul bir tildagi taom nominantining harf sostavini ikkinchi tilga olib o'tish va o'sha tilning fonetik imkoniyatlariga moslashtirish usulidir. Bu usul bilan ikkinchi tilda muqobili bo'lmagan milliy koloritga ega taom nominantlari tarjima qilinadi. Masalan: O'zbek milliy taomlar shohi Palov ingliz tilida Pilaf tariqasida, o'zbekcha Kabob- Kebab, Somsa-Somsa, Cho'pon-Choban tariqasida ingliz tiliga transliteratsiya qilinadi.

Qisman transkripsiya: Bu usulda tarjima tilida mavjud mahsulot tarjima qilinib, asliyat tiligagina tegishli bo'lgan taom nomi transkripsiya qilinadi.

O'zbek tilidan inglizchaga tarjima qilingan taom nomlari -Khasip soup (Xasip sho'rva) pumpkin manti (oshqovoq manti) Fried pilaf (qovurma palov), Steamed kebab (bug'lama kabob), Pilaf with quinces (Bexili Palov) Fried shavla (qovurma shavla); Ingliz tilidan o'zbekchaga — Mac and Cheese (makaron va pishloq) Liver and bacon (jigar va bekon), Chicken fried steak (qovurilgan jo'jali steyk).

Izohli transkripsiya: Bu tarjima usulida asosan milliy koloritga ega taom nomlarini tarjima qilishda foydalaniladi. Bunda taom nomi qo'shtirnoq ichida transkripsiya qilinib so'ng yoniga tarjima tilida taomda ishlatiladigan masalliqlar nomi yozilishi orqali yasaladi. O'zbek tilidan inglizchaga — "Shirqovoq" pumpkin soup with milk, "Chuchvara" national beef dumplings; "Xo'l norin" thin noodles soup, "Sutli go'ja" — corn and milk soup; Ingliz tilidan o'zbekchaga — "Frikadel" yumoloq qiymali sho'rva, "Jerki" quritib dudlangan go'sht;

Adaptatsiya: Bu usul muayyan taomning tarjima tilida tayyorlanishi va mahsulotlari tarkibi o'xshash boshqa tildagi ekvivalentini berish va yarim kalkalash usuli bilan yasaladi [8]. O'zbek tilidan inglizchaga — National ramen soup- ugrali sho'rva; National dumplings - chuchvara; Onion flat bread -piyozli qatlama; Ingliz tilidan o'zbekchaga Italyancha usulda tayyorlangan xonim — Lazanya;

Perefraza: I.R.Galperin perifrazaga «bir predmetning ma'lum bir xususiyatini ko'rsatish uchun uni boshqa nom bilan atashdir» deya ta'rif berib o'tgan. O'zbek tilidan inglizchaga — Rice and beef soup with soured cream Mastava; Boiled beef and pasta -Shilpildoq; Ingliz tilidan o'zbekchaga — Ichiga sabzavot, sariyog', limon sharbati aralashtirib pishirilgan ziravorli krab - Deviled crab, pivoga to'yintirilgan joja - Drunken chicken kabi taom nomlarini perefraza orqali tarjima qilish mumkin.

Generalizatsiya: O'zbek tilidan inglizchaga — Kebab - titrama kabob; Pilaf to'g'rama palov; Ingliz tilidan o'zbekchaga — Go'shtli pirog — Steak and kidney pie; Qovurma jigar — Liver and onions.

Konkretizatsiya: O'zbek tilidan inglizchaga Meat broth with vegetables - qaynatma sho'rva; Black eyed peas porridge — loviya shavla. Ingliz tilidan o'zbekchaga Bulg'ori qalampirli do'lma - Stuffed peppers; Gaz pechida yopilgan loviya -Baked beans); Par pechida pishirilgan cho'chqa son go'shti -Steamed ham);

Sutli qaylaga aralashtirilgan jo'xori - Creamed corn; Tovuqli sendvich - Hot chicken sandwich; Pechda pishirilgan qo'zi go'shti -Roast lamb with mint sauce.

Muhokama. Taom diskursining ahamiyati va uning jamiyatga ta'siri tobora ortib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar taom diskursining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Taom haqidagi ma'lumotlar va fikrlar tez tarqalmoqda, yangi trendlar va tendensiyalar yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, taom diskursida ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarning tarqalishi, oziq-ovqat mahsulotlarining reklama qilishda suiiste'mol qilinishi, taom madaniyatining tijoratlashtirilishi va boshqalar.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun taom diskursining tanqidiy tahlili va oziq-ovqat haqidagi ma'lumotlarning filtrlash mexanizmlarini yaratish zarur. Shuningdek, jamiyatda sog'lom ovqatlanish va taom madaniyatini targ'ib qilish muhimdir.

Tarjima usulini tanlashga taomning turi, maqsadli auditoriya, tarjimaning maqsadi va madaniy farqlar kabi omillar ta'sir qiladi. To'g'ridan-to'g'ri tarjima va transliteratsiya usullari ko'pincha xalqaro miqyosda tanilgan taomlar nomlari uchun qo'llaniladi. Kal'ka va deskriptiv tarjima usullari tarjima qilish qiyin bo'lgan yoki tushunarsiz bo'lgan taomlar nomlari uchun qo'llaniladi. Madaniy moslashtirish usuli restoran menyularida va reklama materiallarida qo'llaniladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida taom nomlarini tarjima qilish — bu murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Tarjima usulini tanlashda yuqorida ko'rib chiqilgan omillarni hisobga olish va maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Ushbu tadqiqot natijalari restoran biznesi, turizm va madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida qo'llanilishi mumkin. Taom nomlarini to'g'ri tarjima qilishda avvalam bor ikki tilda ham taom nomining yasaliishi leksik-semantik xususiyatlarini ko'rib chiqish lozim. Shundan so'ng taom va retsept va menyularni to'g'ri tarjima qilish mumkin. Taom nomlarini tarjima qilish jarayonida tarjima usullaridan foydalanish juda muhim. Tarjima usullari tarjima sifatini oshirish va asliyat tilidan tarjima qilinayotgan taomlarni asl ma'no - mazmunini saqlab qolish uchun yordam beradi. Bu esa restoran menyulari va retsept kitoblari to'g'ri tarjima qilinishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Odilova G. PhD (2019) "Problems of translation and comparative stylistic analysis of the Uzbek and English national food nominees," *Philology Matters: Vol. 2019: Iss. 2, Article 20*
2. Odilova G "Gluttonik diskurs asoslari". - Toshkent, Mumtoz, 2020y, 344 b
3. Madraximov A "O'zbek taomlari". "O'qtuvchi" NMIU 2019 ISBN 978-9943-02-562-2
4. Ермакова Л. Р. Глуттонические прагматонимы и национальный характер: дис. ... канд. филол. наук. / Л. Р. Ермакова // Белгород, 2011. 236 с.
5. Капкан М. В. Феномен гастрономической культуры. дисс... канд. Культурологии / М. В. Капкан // Екатеринбург, 2010. 173 с.
6. Олянич А. В. Потребности — дискурс — коммуникация / А. В. Олянич. Монография. Волгоград: Парадигма, 2004. 507 с.
7. Буркова П. П. Кулинарный рецепт как особый тип текста (На материале русского и немецкого языков): Автореф. дис.... канд. филол. наук. — Ставрополь, 2004. — 24 с.
8. Федорова К.М., Руфова Е.С. Глуттонический дискурс как объект лингвистического исследования // Наука, образование и культура. 2016. № 4. С. 45-48.
9. Fellman, Leoanrd F. Merchendising by Design: Developing Effective Menus and Wine Lists. Lebher-Friedman, 1981. – 136 p.
10. Heimann J., Heller S., Mariani J. Menu design in America: A Visual and Culinary History of Graphic Styles and Design 1850-1985. – Taschen, 2011. – 392 p.
11. Harris Z. S. Discourse Analysis // *Language*. 1952. No. 8. – P. 1-30.
12. Ўзбек миллий таомлари. – Тошкент: Давр Пресс, 2013. – 104 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).